

NUTQNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

*Jizzax davlat pedagogika universiteti
2 kurs talabasi Suyunova Marjona*

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari va maktabgacha va maktab ta'lifi yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish haqida va olimlarning nutq haqida aytilgan soz'lari haqida yoritilgan.

Аннотация: В данной статье изложены теоретические основы методики развития речи и речевого развития детей дошкольного и школьного возраста, а также слова ученых о речи.

Abstract This article describes the theoretical foundations of the speech development methodology and the speech development of children of preschool and school age, as well as the words of scientists about speech.

Kalit so'zlar: nazariy metodika ,til, "ilk start", nutqiy faoliyat, muloqot, ko'nikma, pedagog, tafakkur.

Ключевые слова теоретическая методика, язык, «первый старт», речевая деятельность, общение, умения, педагогика, мышление.

Key words: theoretical methodology, language, "first start", speech activity, communication, skills, pedagogy, thinking.

KIRISH.

Nutqni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari: til, nutq, nutqiy faoliyat. Til – bu ijtimoiy hodisadir. O‘zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan har bir xalqning ona tili uning milliy o‘ziga xosligi va ma’naviy madaniyatining yorqin ko‘rsatkichidir. Til tafakkur bilan monand bog‘langani holda ongi shakllantiradi. Nutq va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik nafaqat psixologik jarayonlarning chuqur bosqichlarida, balki ijtimoiy hodisalar darajasida ham namoyon bo‘ladi. So‘zning insonga, uning xulq-atvoriga ko‘rsatadigan ta’siri barchaga yaxshi ma’lum. «Garchi til bilan tafakkur bir-birisiz yashay olmasa ham ular o‘zida aynan bir hodisani ifodalamaydi. Tafakkur – obyektiv borliqning intihosi, til esa – ifoda usuli, fikrni boshqa kishilarga berish va mustahkamlash vositasi. So‘z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi¹.

Hozirgi paytda mamlakatimizda tillar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ikki tamoyil mavjud: bir tomonidan, milliy tillarning yanada rivojlanishi va takomillashuvi, o‘zga tomonidan esa – o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi ahamiyatining oshishi ro‘y bermoqda.

¹ Бородич А.М. Методика развития речи детей: Учеб. пособ. для студ. пед. инс. 2-е изд. –М.: Просвещение, 1981. –С. 101–255.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va yuzaga kelgan iqtisodiy ehtiyojlar mamlakatdagi ko'p sonli aholining ona tili bo'lgan o'zbek tilini davlat tili sifatida o'rganishni shart qilib qo'ydi, bu esa ko'p millatli jamiyat sharoitida katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Psixolingvistik adabiyotlarda yozilishicha, haqiqiy ikki tillilik faqat odam hech bo'limganda bitta tilda har qanday fikrni mos tarzda ifodalashga qodir bo'lgan taqdirdagina rivojlanadi. Agarda nutq bironta tilda ham to'laqonli shakllanmagan bo'lsa, bu holda fikr tuzilmasi buzilib ketadi va o'z fikrini ifodalashga bo'lgan intilish muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, bu esa nafaqat psixologik ezilishlarga, balki muloqot sifatidagi chuqur yo'qotishlarga va inson shaxsiga ziyon yetishiga olib keladi. Yarim tillilik deb ataladigan bunday hodisa, umuman olganda, jamiyat uchun ham ancha xavflidir, chunki bunda uning a'zolarining muayyan qismi hissiyotlarini boshqara olmaydi hamda o'z hissiyotlari, ehtiyojlari, istak-xohishlarini tegishli tarzda so'z shakliga keltira olmaydi. Agarda inson xohlagan narsasini ayta olmasa, u boshqalar bilan teng ravishda raqobatlashishga, kommunikatsiyaning odatdagi shakllaridan foydalanishga qodir bo'lmay qoladi hamda u o'z-o'zini boshqarishning qandaydir boshqa shakllariga murojaat qilishga, ba'zan esa zo'ravonlik qilish, kuch ishlatishga majbur bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, ilk yoshdan boshlab individning nutqiy rivojlanishini tuzatishni to'g'ri tashkil etish zarurdir. «Ilk start» ona tilini qabul qilishga va keyinchalik har qanday boshqa tilni o'zlashtirib olishga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi». Til qanchalik oldin egallab olinsa, bilimlar ham shunchalik oson va to'liqroq o'zlashtiriladi» (N.I.Jinkin)².

Bola tug'ilgan paytidan boshlab ijtimoiy mavjudot hisosblanadi. Uning har bir yosh bosqichidagi ijtimoiy rivojlanishi o'z xususiyatlariga, vazifa va mazmuniga ega bo'lib, bularni amalga oshirish uchun pedagogika sohasidagi ishlarga tegishli shart-sharoitlarni yaratish darkor.

Bolalardagi ko'plab nutqiy *muloqot* va ko'nikmalar mashg'ulotlardan tashqarida shakllanadi. Maktabgacha ta'limda bolalarning kattalar (pedagoglar, tibbiyot hamshiralari, tarbiyachi yordamchisi va boshq.) bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro'y beradi.

Mehnat jarayonida - xo'jalik-maishiy, qo'l va qishloq xo'jaligi mehnatida bolalarning lug'ati boyiydi, aniqlashadi va faollashadi.

O'yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug'at, mashg'ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O'yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug'atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi.

Bolani har tomonlama rivojlantrish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo'lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning

² Жинкин Н.И. Механизмы речи. – М. АПН, 1958. – С. 38.

ko‘p asrlik tajribasini o‘zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi – til orqaligina berish mumkin.

Til – hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib, biz unga o‘z-o‘zidan bo‘lishi shart bo‘lgan narsa sifatida qaraymiz. Tilning o‘zi nima, biz unda qanday so‘zlayapmiz, biz qanday qilib so‘zlashni o‘rganishimiz haqida esa unchalik ko‘p o‘ylab ham o‘tirmaymiz. Bilimni uyushtiruvchi boshlang‘ich bosqich sifatida chiqadigan nazariya tilda shakllanadi, bu esa bilish jarayonida tilga alohida o‘rin beradi va shu bilan til haqidagi fan oldida yangi ilmiy ufqlarni ochadi, uni o‘zining gumanitar mohiyati haqida orzu-xayollarga berilgan holda doimo tinch-osuda va jimgina o‘tiradigan burchagidan chiqishga majbur qiladi. Ye.I.Tixeyeva o‘z metodikasida bolalar nutqini rivojlantirishga oid ishlar mazmunini hamda nutqning rivojlanishi, og‘zaki nutq rivojlanishi ro‘y beradigan faoliyat turlarini aniqlaydi. Mashg‘ulotlar jarayonida ushbu faoliyat turlarini yo‘lga qo‘yishda Tixeyeva asosiy e’tiborni lug‘atni boyitish va ravon nutqni rivojlantirishga qaratish lozimligini ko‘rsatadi. U ko‘rgazmaviylik va kuzatishni bola nutqini rivojlantirish asosi deb hisoblaydi. Ye.I.Tixeyeva tomonidan ekskursiyalarni o‘tkazish metodikasi ishlab chiqilgan, ekskursiyalarni bunday tashkil qilish, uning fikricha, bolalarni bevosita tabiatga oshno qiladi, ularga jonli borliqni ularning tabiiy munosabatlari bilan birgalikda tanishtiradi. O‘qituvchi nutq madaniyatiga e’tibor berishi, sodda ravon ifodali qilib so‘zlashi, materialni izchil qat’iy reja asosida bayon qilish lozim. Shuning uchun o‘quvchilarning tinglab eshitish imkoniyatlarini xisobga olish zarur.

Ye.I.Tixeyeva nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlariga nisbatan qo‘yadigan asosiy talablari qatorida bolalar qiziqishlari va tajribalari, ularni jonli o‘tkazish, harakatlanish va sinab ko‘rish imkoniyatlari bilan aloqasini olg‘a suradi. 1956-yili maktabgacha tarbiya yo‘nalishidagi pedagogika bilim yurtlari uchun birinchi marta «Bolalar bog‘chasida nutqni rivojlantirish va ona tilini o‘qitish» nomli o‘quv qo‘llanmasi dunyo yuzini ko‘rdi. Mazkur qo‘llanma muallifi O.I.Soloveva edi. 50–60-yillarda nutqni rivojlantirish metodikasida yangi bo‘lim – grammatic to‘g‘ri nutqni shakllantirishga katta e’tibor berila boshlandi. Ushbu masalani yoritishga professor A.N.Gvozdev ulkan hissa qo‘shdi, u o‘zining «Bolalar nutqni o‘rganish masalalari» nomli kitobida (1961) bolalarning ilk yoshdan boshlab grammatic tuzilishni o‘zlashtirib olishlarining qonuniyatlarini ochib bergan. Ye.A.Flerina «maktabgacha yoshdagи bolalarni o‘qitish muammosini tor darajada hal etish»ning xavfliligi haqida ogohlantirgan, maktabgacha yoshdagи bolani o‘qitishning o‘ziga xosligini ta’kidlagan: «Bolalar bevosita hayot bilan muloqotga kirishish yo‘li bilan, tengdoshlari va kattalar misolida hamda mashg‘ulotlar va maxsus mashg‘ulotlarda tarbiyachining ko‘rsatib o‘tishi orqali o‘qib o‘rganadilar». U o‘zining tarbiya tizimida san’atga va undan har xil faoliyat turlarida, shu jumladan badiiy-nutqiy faoliyatda bola imkoniyatlarini rivojlantirish uchun foydalanishga asosiy

o'rinni bergen. A.P.Usova maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitishning umumiy nazariyasini ishlab chiqqani holda unda ona tilini o'qitishga alohida o'rin bergen. Uning fikricha, ta'lim jarayonining o'zi to'g'ri nutqiy rivojlanish kafolati bo'lib xizmat qiladi, chunki «bolalarning nutqiy rivojlanishiga shunday sifatlarni kiritadiki, ular odatda, oddiy sharoitlarda zaif rivojlanadilar». Ta'lim nutq rivojlanishi qonuniyatlarini to'g'ri hisobga olingan taqdirda u barcha bolalar nutqining maqbul darajada rivojlantirilishini ta'minlaydi, hisoblaydi A.P.Usova. U bolalarning mustaqil ravishda egallab olishlari qiyin bo'lgan hikoya qilib berish qobiliyatini shakllantirishga alohida ahamiyat bergen. A.P.Usova ona tili bo'yicha dasturni o'zlashtirish uchun barcha bolalar bilan mashg'ulot o'tkazish lozim, deb hisoblagan. Ayni paytda u mashg'ulot o'tkazish metodikasini ishlab chiqish uchun ham ko'p ishlarni amalga oshirgan. Tadqiqotchilarning asosiy e'tibori nutqiy mashg'ulotlar mazmuni va metodikasiga qaratildi, bu asta-sekin Ye.A.Flerina ogohlantirgan «nutqni o'rgatish» tushunchasining torayishiga, amaliyotda esa – nutqni rivojlanishga doir maxsus mashg'ulotlar ahamiyatining oshishiga olib keldi. 60–70-yillarda bolalar nutqini rivojlanish masalalarini o'rganish ishlari faollashdi. Hozirgi paytda bolalarning yuqori darajada aqliy va nutqiy rivojlanishini, ularning til qobiliyatlarini shakllanishini ta'minlash imkonini beruvchi bolalar o'quvini tashkil etishning maqbul shaklini qidirish ishlari olib borilmoqda. Nazariy va amaliy tadqiqotlarda bunday o'quvning mazmuni va shakllari haqidagi masalalar hal etiladi. Mana shunday olimlarimiz nutqiy faoliyatga juda katta hissalarini qo'shgan va bu faoliyat hali hamon biz yoshlarga asqotib kelmoqda. Buyuk rus yozuvchisi va metodisti Lev Tolstoy "Bolalarni o'qitishni bas qiling" deganda, aslida, ularning o'zлari ustida ishslashlari uchun imkoniyat qilib berishlik, ularning o'zлarini o'z ustlarida ishslashga o'rgatishni nazarda tutgan edi. Bugun ta'lim tizmidagi hayotiy kompetensiyaviylilikning ham mohiyati bolalarni jonsiz dars jihozlaridan ko'ra hayotiy faoliyatga olib chiqishni, dars jarayonini hayot bilan bog'lashni pirovard maqsad qilib qo'yadi.

Ta'kidlaganimiz kabi harflarni bolaga zo'raki tiqishtirishdan ko'ra, shu harflarni obrazlarda tavsiya etish, ularni qiziqarli ko'rinishda o'rgatish qiziqqon bolajonlar uchun yana-da maroqli va quvnoqroq bo'ladi. Ta'lim va tarbiya jarayoni shunday tashkil etilganda, bolalarga bilim berishning hojati ham qolmaydi. Ularning o'zлari bilimni sizdan tortib olishadi. Faqat buni qanday tashkil qilish ma'qul ekanligini bila olsangiz bas. Bundan tashqari savod o'rgatish jarayonida har bir harf haqida ertak aytib berishlik bolalarni harfga nisbatan qiziqishini yanada orttiradi. Siz majburlamasangizda kechasi bilan bola shu harf haqida o'ylab chiqadi. Shu harfning boshidan o'tgan sarguzashtlari, qilgan qahramonliklari haqida xayol suradi. Axir o'qituvchining asl maqsadi ham shu emasmi. Maqsadga olib boradigan turli yo'l va usullar turganda o'rinsiz va eski metodlardan foydalanishga hojat yo'q.

Bolalarning ichki dunyosi go‘yo shudgorlanib qo‘yilgan poyonsiz dalalarga o‘xshaydi. U yerga nima eksangiz, shu narsa unib chiqadi. Shuning uchun keling, bu dalalarni bog‘-bo‘stonlarga aylantirishni xohlar ekanmiz, bu bog‘lardan barcha bahramand bo‘lishiga imkoniyat yaratishimiz lozim.

Xulosa . Bolaning nutqi til qonuniyatlariga to‘g‘ri amal qilish, kattalar nutqini idrok etish va o‘zining ijodiy faolligi natijasida rivojlanadi. Nutqni samaraliroq rivojlantirish maqsadida bolalarning tevarak-atrof obyektlari (kishilarning hayoti va mehnati, hayvonlar, o‘simgiliklar olami, suv osti dunyosi) to‘g‘risidagi tasavvurlarini aniqlash va izchil, rejali tarzda kengaytira borish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. D.R. Babayeva. Nutq o‘simgilik nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 432 b.10-12-14-15 b.
2. T.Jabborova. X.G’ulomova. G.Eshturdiyeva. 1-sinfda savod darslari. Ona tili o’qitish metodikasi.
3. Boshlang’ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. S.matchanov, X.G’ulomova, Sh.Yo’ldosheva,Sh.Sariyev.- Toshkent:Bayoz, 2022. – 304 bet. 241 bet.